



TURKIYA VA BAANING DUALISTIK MOLIYA TIZIMI HOLATI TAHLILI

Zayniddinov Ruhiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2778-8147

r.zayniddinov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada dualistik moliya tizimiga ega Turkiya va BAA mamlakatlarining moliya bozori joriy holati tahlil qilinadi. Xususan, maqolada Turkiya va BAA (Birlashgan Arab Amirligi)ning islomiy va an'anaviy moliya tizimining qiyosiy tahlili olib borilib, bunda islom moliyasining umumiy moliya bozoridagi ishtirokining holati, islomiy kapital bozori, islomiy sug'urta bozori va islomiy investitsiya fondlarining moliya bozoridagi ishtirokining qiyosiy holati tadqiq etiladi.

Kalit so'zlari. Turkiya, BAA, dualistik moliya tizimi, islom moliyasi, islom banki, islomiy darcha, an'anaviy moliya.

АНАЛИЗ ДУАЛИСТИЧЕСКОЙ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ ТУРЦИИ И ОАЭ

Зайниддинов Рухиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется современное состояние финансовых рынков Турции и ОАЭ, стран с дуалистическими финансовыми системами. В частности, в статье проводится сравнительный анализ исламской и традиционной финансовых систем Турции и ОАЭ (Объединенных Арабских Эмиратов), рассматривается состояние участия исламских финансов в общем финансовом рынке, сравнительное состояние участия исламского рынка капитала, исламского рынка страхования и исламских инвестиционных фондов в финансовом рынке.

Ключевые слова: Турция, ОАЭ, дуалистическая финансовая система, исламские финансы, исламский банк, исламское окно, традиционные финансы.

ANALYSIS OF THE DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM OF TURKEY AND THE UAE

Zayniddinov Rukhiddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the current state of the financial markets of Turkey and the UAE, countries with dualistic financial systems. In particular, the article conducts a comparative analysis of the Islamic and conventional financial systems of Turkey and the UAE (United Arab Emirates), examining the state of participation of Islamic finance in the general financial market, the comparative state of participation of Islamic capital market, Islamic insurance market and Islamic investment funds in the financial market.

Keywords: Turkey, UAE, dualistic financial system, Islamic finance, Islamic bank, Islamic window, conventional finance.

Kirish.

Keyingi yillarda ko'plab mamlakatlar moliya bozorini jonlantirishda dualistik moliya tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratishmoqda. Ya'ni mamlakatda an'anaviy moliya tizimi bilan bir qatorda islom moliyasi tizimini parallel ravishda ishlashini yo'lga qo'yish asosida mamlakat moliya bozorining YaIM ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarini oshirishni ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyoti o'zgaruvchan va murakkab tizimlarga asoslangan bo'lib, moliya tizimlari ham bu o'zgarishlarga moslashishga harakat qilmoqda. Turkiya va BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) kabi mamlakatlar, iqtisodiy barqarorlik va global integratsiya yo'lida bir qator moliyaviy strategiyalarni amalga oshirmoqda. Ularning moliya tizimlari orasida dualistik tizim - ya'ni, an'anaviy va islomiy moliya tizimlarining birgalikda faoliyat yuritishi alohida ahamiyatga ega.

Jahonda islom moliya tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlangan sohalardan biri hisoblanib, 2022 yil yakunlari bo'yicha ushbu tarmog'ning yalpi aktivlari miqdori 4,5 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va yiliga o'rtacha 10-15 foizga o'sib bormoqda.

Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (2022) ma'lumotlariga ko'ra, 75 dan ortiq mamlakatlarda 600 ga yaqin islom banklari va islom banki bo'limiga (islomiy darchalar) ega taxminan 200 dan ortiq an'anaviy banklar mavjud.

Global islomiy moliya sanoatining uchta asosiy yo'nalishi bank ishi, kapital bozorlari va takaful (islomiy sug'urta) hisobiga yiliga ikki xonali o'sish raqamini qayd etib bormoqda.

Turkiya va BAA dualistik moliya tizimidan foydalanishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llab kelmoqda. Turkiyada, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan an'anaviy bank tizimi bilan birga, islomiy moliya bozori ham rivojlanishda davom etmoqda. BAA esa islomiy moliyaviy xizmatlarga katta e'tibor qaratib, global miqyosda islomiy moliyaviy markazlardan biri sifatida o'zining o'rnini mustahkamlashga intilmoqda.

Mazkur tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning iqtisodiy o'sishdagi roli va jahon iqtisodiyotdagi integratsiya darajasi kabi masalalar, moliya tizimlarining joriy holatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishda Turkiya va BAAning dualistik moliya tizimlarining holatini tahlil qilish, ularning o'zaro ta'siri va jahon moliya bozoridagi o'zni o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Islomiy moliya eng tez rivojlanib borayotgan sanoat sifatida nafaqat musulmonlar ko'p istiqomat qiladigan mamlakatlar, balki musulmonlar kamchilikni tashkil etadigan mamlakatlar ham o'z moliya sanoatlarida dual moliya tizimini tashkil etishda qo'llashmoqda.

Dual moliya tizimi - ya'ni islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining bir vaqtning o'zida mavjudligi - moliya sohasida muhim va murakkab masalalardan biridir. Bu tizim, ayniqsa, islomiy moliya tamoyillari va an'anaviy moliya amaliyotlarini birlashtirgan mamlakatlarda, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda o'zining rolini ko'rsatmoqda. Bu mavzu bo'yicha turli tadqiqotlar, har bir tizimning o'ziga xos xususiyatlarini, uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, hamda dual tizimning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, bulardan, Rahman (2019) o'z tadqiqotida islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining birlashtirilgan yondashuvini kiritgan. Tadqiqotda, Moliyaviy Integratsiya modeli orqali, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Rahman olib borgan tadqiqoti natijasida, yaxshi muvozanatlangan dual moliyaviy tizim mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishini yanada kuchaytirishi aniqlangan. Shuningdek, Hassan va Mahlknecht (2017) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda islomiy va an'anaviy bankchilik tizimlarining farqlari o'rganilgan. Tadqiqotchilar, islomiy banklar va an'anaviy banklarning faoliyatini, riskni boshqarish, foyda va zarar taqsimoti, hamda investitsiyalarni amalga oshirish tamoyillariga qarab tahlil qilishgan. Tadqiqotda, keys stady

(case study) yondashuvi orqali Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklaridagi bank tizimlari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotning natijasida, Islomiy bankchilik tizimi, an'anaviy tizimga nisbatan, yuqori ijtimoiy barqarorlikka egali, ammo qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda an'anaviy bank tizimi ko'proq samara berishini ko'rsatgan. Bundan tashqari, Beck va Demirgüç-Kunt (2019)larning tadqiqotida islomiy bankchilik va an'anaviy bankchilik tizimlarining global moliya bozoridagi o'rne o'rganilgan. Mazkur olimlar, islomiy banklar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda qanday rol o'ynashini tahlil qilish uchun global miqyosda statistik tahlil usulidan foydalanishgan. Olimlarning tadqiqoti natijasida, Islomiy bankchilik tizimi ribo va boshqa salbiy iqtisodiy amaliyotlarga nisbatan ko'proq barqarorlikni ta'minlashga qodirligi, lekin an'anaviy bank tizimi mamlakatning qisqa muddatli iqtisodiy o'sishiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi yuqoridagi tadqiqot ishi kabi aniqlangan. Shu bilan birga, Ali va Omar (2021) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda islomiy va an'anaviy moliya tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni tahlil qilishda, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni e'tiborga olishga alohida urg'u berilgan. Tadqiqotda dual tizimning samaradorligini o'rganish uchun analitik va matematik modellardan foydalanilgan. Tadqiqotning natijasida dual moliya tizimi o'rtasidagi to'g'ri muvozanat global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam berishi borasidagi ilmiy faraz o'z tasdig'ini topgan. Tadqiqotlarning umumiy natijalariga ko'ra, islomiy bankchilik tizimi an'anaviy tizimga nisbatan ijtimoiy barqarorlik va moliyaviy etika jihatidan yaxshiroq natijalarga olib keladi hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik, inqirozlardan chetda bo'lish va boshqa bir qancha ijobiy natijalarga erishishda ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, mamlakatning qisqa muddatli iqtisodiy o'sishi jihatidan an'anaviy bank tizimi ko'proq muvaffaqiyatli bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Dual bank tizimlarining integratsiyasi mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi, lekin ba'zi hollarda tizimlar o'rtasida muvozanatni saqlash muammo bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, dual moliya tizimining samaradorligi mamlakatlarning o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga qarab farq qilishini ko'rsatadi.

Mazkur dual moliya tizimini tadqiq etishga qaratilayotgan tadqiqotimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlaridan qo'llanilgan yondashuv, tanlab olingan mamlakatlar va davr nuqtai nazaridan farqlidir.

Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda miqdoriy yondashuvidan foydalanildi. Jumladan, islomiy va an'anaviy banklarning moliya bozoridagi ishtiroklarini tahlil qilishda qiyosiy tahlil qilishdan ham samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Islom moliyaviy xizmatlar kengashi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, Malayziya, BAA va Bangladesh kabi dual moliya tizimiga ega mamlakatlarda jami bank aktivlarida islom banklarining ulushi 20 foizdan ortiq bo'lib, Turkiya va Indoneziya 10 foizdan kam ulushga ega.

Lekin, ushbu mamlakatlarda islom banklarining umumiy bank sektoridagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, dual moliya tizimiga ega ushbu mamlakatlarda islom moliyasining umumiy moliya tizimidagi ulushini oshirish bo'yicha 2030 yillarga mo'ljallangan islomiy moliyani rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilgan.

Dual moliya tizimiga ega Malayziyada islom banklarining aktivlari midqori 2022-yil yakunlariga ko'ra 278 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Undan keyingi o'rinda Birlashgan Arab Amirliklari 213 mlrd AQSh dollari, Turkiya 63 mlrd AQSh dollari, Bangladesh 52 mlrd AQSh dollari va Indoneziyada 46 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi (2-rasm).



1-rasm. Dual moliya tizimiga ega 5 ta mamlakatda jami bank aktivlaridagi islom banking ulushi (2022-2023 yillar)



2-rasm. Dual moliya tizimiga ega 5 ta mamlakatda islom moliyasi aktivlari miqdori (mlrd. AQSh dollarida, 2022)

Biz tadqiq etayotgan dual moliya tizimiga ega mamlakatlar ichida islom banki aktivlari ichida eng katta ulushga ega mamlakat Malayziya bo'lib, jahonda islom bank aktivlarining 11.2 foizni tashkil etadi. Undan keyingi o'rinlarni 10.0 foiz bilan BAA, 2.9 foiz bilan Turkiya, 2.7 foiz bilan Bangladesh va 1.9 foiz bilan Indoneziya egallaydi (1-jadval).

1-jadval

Dual moliya tizimiga ega 5 ta davlatning jahonda islom banklaridagi bozor ulushi (Aktiv hajmi foizda, 2021 yil)

No	Mamlakat	Ulushi (%)
1	Malaziya	11.2
2	BAA	10.0
3	Turkiya	2.9
4	Bangladesh	2.7
5	Indoneziya	1.9

Dual moliya tizimiga ega mamlakatlarda islom banklari va darchalarini tashkil etish so'nggi yigirma yil ichida an'anaviy banklariga qaraganda tezroq o'sishni qayd etdi. Xususan, Indoneziyada 14 ta islom banklari, 22 ta islom darchalari mavjud va uning bozordagi ulushi 33%ni tashkil qildi. BAAda esa 8 ta islom banklari, 18 ta islom darchalari bo'lib, uning bozor ulushi 20%ni qayd etgan bo'lsa, Bangladeshda islom darchalarining soni sezilarli darajada ko'p bo'lib, 163 ta va uning bozor ulushi 6,7 foizdir. Bangladeshda 5 ta islom banklari, Turkiyada esa 6 ta islom banklari mavjud. Islom moliyasi rivojlangan Malayziyada esa 6 ta islom banklari, 11 ta islom darchalari va uning bozordagi ulushi 2,5 foizni tashkil etadi.

Dual islomiy moliyalashtirish tizimini tashkil etish borasidagi mamlakatlar tahlilini davom ettirgan holda dual islomiy moliya sanoatini yo'lga qo'ya olgan mamlakatlardan biri Turkiya mamlakati tajribasini ko'rib chiqamiz.

Turkiyada islom moliyasi 1984-yildan boshlab faollasha boshladi. Maxsus moliya uylari islomiy moliya bo'yicha birinchi muassasalar bo'lib, ular 2005-yilda yangi bank qonuni bilan Ishtirokchilik (islomiy) banklariga aylantirildi. Garchi aholining 95% dan ortig'ini musulmonlar tashkil etsada, ishtirok (islom) banklari bank sektorining umumiy bozor ulushining atigi 8-9 % ni tashkil qiladi. Oxirgi iqtisodiy rivojlanish va bir qator me'yoriy o'zgarishlar Turkiyada islomiy moliya sektorining o'sishini tezlashtira boshladi. Masalan, suveren sukuk va ishtirok banklarining sukuklari chiqarildi, islom xususiy pensiya va takaful (Islom sug'urtasi) kompaniyalari tashkil etildi, ishtirokchi banklar soni 6 taga yetdi.

Shuning bilan birgalikda, Turkiyada islomiy moliya amaliyotining turli muammolari mavjud bo'lib, ishtirokchi banklar aktivlari yuqori o'sish sur'atlariga qaramay, islomiy moliya bozorining o'sishini cheklaydi. Shu sababli mavjud islomiy moliya amaliyotlari Turkiya bozorining ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi.

Malayziya va boshqa arab davlatlari bilan solishtirganda Turkiya islom banki va moliyasini kech qo'llaganiga shubha yo'q. Mamlakatda islomiy bank ishi 1980 yilda paydo bo'lganligi haqiqatdir. Biroq islom moliyasi Turkiya hukumati va siyosiy rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanganidan keyin 2005 yildan jadal rivojlana boshlandi. Bundan tashqari, mamlakatning islom banki va moliyaviy xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji kundan kunga ortib borishi ham ushbu sohani rivojlanish yo'lidagi muhim omillardan bo'ldi.

Bugungu kunda Turkiya islom moliyasi sanoati umumiy aktivlari bo'yicha jahonda 9 o'rinda, islom bank aktivlari bo'yicha esa 8 o'rinda turadi. Turkiya islom moliya sanoatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va me'yoriy bazani yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1983-yilda "Ishtirokchi bank to'g'risida"gi qonunni qabul qilishi islom banki amaliyotlari uchun mustahkam poydevorni yaratdi.

Turkiyada islom moliya sanoati Bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish agentligi (BDDK) va kapital bozori kengashi (SPK) tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi.


Turkiyada islomiy moliyalashtirish hajmi bir necha yil ichida 100 milliard dollarga etishi kutilmoqda. 2023 yilning sentyabr oyida bu ko'rsatkich 90 milliard dollarni tashkil etdi.

Turkiya bir necha yillar davomida islom moliyasi uchun qulay muhit yaratish maqsadida qonunchilik va tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirdi. Shariatga mos moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish uchun qonunlar va o'zining mavjud huquqiy asoslari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritdi, bu islomiy moliya institutlari uchun an'anaviy moliya institutlari bilan parallel ishlashini ta'minlaydigan teng sharoitlarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2022-yil iyun oyi holatiga ko'ra, davlat ishtirokidagi banklarning ishtirokchi bank sektoridagi ulushi 36,9 foizni tashkil etdi. Bundan tashqari, BDDK tomonidan 2021-yilda chiqarilgan "Raqamli banklarning ishlash tamoyillari va xizmat ko'rsatish modeli banki to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq uchta yangi raqamli ishtirok banklari (Hayat Katilim, Kasa Katilim, T.O.M. Katilim) litsenziyaga ega bo'ldi.

So'nggi o'n yillikda ishtirokchi banklar bank tizimidagi bozor ulushini 2022-yilning birinchi yarmidagi holatiga ko'ra 4,3 foizdan 8,2 foizga oshirdi (3-rasm).


Turkiya Ishtirokchi Banklar Assotsiatsiyasi (TKBB) ma'lumotlariga ko'ra, banklar 2023-yil may oyi holatiga ko'ra 1,4 trillion TL (52 milliard dollar) aktivlarga egalik qilmoqda. Ularning butun Turkiya bo'ylab 1400 dan ortiq filiallari tarmog'i mavjud va ularda 18650 ga yaqin kishi band hisoblanadi.



3-rasm. Ishtirokchi banklarning umumiy aktivlari 2010-2022 yillar kesimida (milliard TRY, foizda)

2021-yilda ishtirokchi banklarning aktivlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,1 foizga oshib, 717,3 milliard turk lirasini tashkil etdi. 2012-2016-yillarda bank tizimidagi ishtirokchi banklarning ulushi aktivlari hajmi bo'yicha pasaygan bo'lsada, bu ulush, ayniqsa, 2016-yildan keyin davlat ishtiroki banklarining tashkil etilishi natijasida keskin o'sish sur'atlari kuzatildi. 2010-2021- yillar oralig'ida umumiy ko'rinishda ishtirokchi banklar bank sektorida an'anaviy banklardan ko'ra ko'proq o'sish tendensiyalarini qayd etdi.

Ishtirokchi Banklar Assotsiatsiyasi (TKBB)ning 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, a'zo banklarning sof rentabelligi 443 foizga o'sgan va aktivlar hajmi 65,6 foizga o'sib, 2022-yil oxiriga kelib 1,19 trillion TRYni tashkil etgan hamda ularning bank sektoridagi ulushi 8,4 foizga yetgan.



4-rasm. Kreditning depozitga nisbati (foiz)


Turkiyada davlat ishtirokidagi banklarning tashkil etilishi 2015-2017-yillardagi tendensiyani o'zgartirgan bo'lsa, 2017-2020-yillarda ishtirokchi banklar kapitalining yetarlilik koeffitsienti depozit banklaridan past bo'ldi. Davlat ishtirokidagi banklarga kapitalning katta miqdorda kiritilishi so'nggi 5 yildagi tendensiyani o'zgartirdi va ishtirokchi banklarning KYK depozit banklaridan yuqori bo'ldi.

2022-yil iyun oyi holatiga ko'ra, ishtirokchi banklarining jami foydasi 18,1 mlrd. TRY tashkil etdi. Ushbu davrda kapital bozorlari va valyuta operatsiyalari natijasida olingan sektor foydasining umumiy foydadagi ulushi 29,5 foizga yetdi.

Balans majburiyatlari bo'yicha yig'ilgan mablag'larning bank sektorida moliyalashtirishga qay darajada yo'naltirilganligining yana bir ko'rsatkichi bo'lgan kreditlar va depozitlar nisbati ham 2014-yildan buyon bank sektorining o'rtacha ko'rsatkichidan pastligicha qolmoqda (4-rasm).

Tarixan, ishtirokchi banklar tomonidan taqdim etilgan moliyalashtirishda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning ulushi depozit banklari tomonidan taqdim etilgan kreditlarning umumiy hajmidagi kichik va o'rta biznes kreditlarining ulushidan yuqoridir.


Ishtirok etish banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda asosiy ulush o'rta biznes korxonalariga to'g'ri keladi (5-rasm). Ulardan keyin kichik korxonalar turadi. Ishtirokchi banklar kichik va o'rta biznes tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan moliyalashtirishning umumiy moliyalashtirishdagi ulushi bo'yicha depozit banklaridan oldinda. Boshqa tomondan, kichik va o'rta biznesni jami moliyalashtirishda ishtirokchi banklar tomonidan mikrofirmalarga taqdim etilgan moliyalashtirish ulushi nisbatan past.



5-rasm. Jami kichik-o'rta biznes korxonalarini moliyalashtirilishida o'rta korxonalarining ulushi (foizda)


Dual moliya tizimiga ega navbatdagi mamlakat Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)dir.

BAAda islom moliyasi deyarli 50 yil oldin, 1975-yilda dunyodagi birinchi islomiy tijorat banking tashkil etilishi bilan boshlangan. Shundan so'ng to'rt yildan so'ng mamlakatda birinchi takaful sug'urta kompaniyasi ishga tushirildi. O'sha davrdan buyon BAA jahon islom moliyasi barqaror rivojlanishida yangi tashabbuslari bilan ajralib turadi. 2023-yilgi Islom moliyasining rivojlanishi hisobotiga (IFDI 2023) ko'ra, BAA dunyodagi to'rtinchi yirik islomiy bank bozoriga aylandi. Mamlakatda dual bank tizimi mavjud. 2022-yilda BAAda jami 24 ta islom banki institutlari mavjud bo'lib, ulardan sakkiztasi mustaqil va 16 tasi an'anaviy banklarning islomiy darchalari hisoblanadi.



6-rasm. Islom bankingning aktivlari (AED mlnda)

Bu raqamlarni ajratadigan bo'lsak, oltita mahalliy to'liq islom banklari va xorijiy islom banklarining ikkita filiali hamda islomiy darchaga ega 11 ta mahalliy va beshta xorijiy banklar mavjud. Bu raqamlar 2020-yilda Dubay Islom Banki tomonidan Noor Bankni sotib olish va boshqa birlashishlarni amalga oshishi natijasida 2018-yildagi 9 ta to'liq islom banki va 18 ta islomiy darchalari soni kamaygan (7-rasm).




7-rasm. BAA islom banklar va darchalari tahlili (2022)

BAAning islom bank sektoriga tegishli aktivlar 2022-yilda 845 milliard AED ni tashkil etdi va oldingi besh yil ichida yillik o'sish sur'atini (GAGR) 3 foizga oshirdi. Islomiy banklarning aktivlari 631 milliard AEDni, islomiy darchalar esa 214 milliard AEDni tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 8% va 49% ga o'sishni mos ravishda ko'rsatdi. Bugungi kunda Islomiy darchalar BAAdagi jami islom banki aktivlarining 25 foizini tashkil qiladi. 2022-yilda BAAda islomiy bank aktivlarining ulushi jami bank aktivlarining 23 foizini tashkil etdi.


Birlashgan Arab Amirliklari Markaz bankingning 2023-yilning choraklik kredit ta'sirini o'rganish natijalariga ko'ra, kuchli iqtisodiy holat yuqori stavkalarining moliyalashtirish talabiga ta'sirini qoplagan. Moliyalashtirishning o'sishiga islom banklarining kuchli moliyalashtirish salohiyati ham yordam bergan.

2022-yilda BAAning islomiy bank sanoati 2019-yildan buyon depozitlar bo'yicha eng yuqori o'sishni qayd etdi. Bu pandemiya boshlanganidan ikki yil o'tib BAAda makroiqtisodiy tiklanishga mos keldi. 2022-yilda moliyalashtirishga parallel ravishda depozitlar 4 foizga oshdi va bu islom banklarining kredit imkoniyatlarini yaxshilash, likvidlikni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Majburiyatlar bo'yicha depozitlar islom banklari uchun jami majburiyatlarning 66% ni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi o'rinda 5% bilan islom kapital bozorini moliyalashtirish turadi.



8-rasm. Dual bank tizimida ikki bank sektorining kreditlar va moliyalashtirishdagi ulushi (2023-yil, foizda)


2022-yil yakunlariga ko'rsa, jismoniy shaxslar 38 foiz va korporativ sektor 33 foiz depozitlarning eng katta ulushini tashkil etdi. Korporativ sektor jami omonatlarning katta qismini tashkil etar ekan, xususi korporativ sektor hissasi 2021-yilga nisbatan 9 foiz punktga kamaydi. Shu bilan birga, islom banklarida davlat sektori depozitlarining o'sishi kuzatildi. Birlashgan Arab Amirliklaridagi islom banklari tomonidan xabar qilinganidek, depozitlarning katta qismini mudoraba va vakala depozitlari kabi foydani taqsimlovchi investitsiya hisoblari tashkil etgan.



9-rasm. Dual bank tizimida ikki bank sektorining depozitlaridagi ulushi (2023-yil, foizda)

BAAda Islom banklari uchun investitsiyalarda sukuk ustunlik qiladi. 2021-yilda islom bank sektoriga banklar tomonidan investitsiyalarning 52 foizga o'sishidan so'ng, ayniqsa sukukka investitsiyalarning keskin o'sishi kuzatilganda, o'sish 2022-yilda 14 foizgacha pasayib, 127 milliard AEDni tashkil etdi. 2022-yilning o'rtalaridan boshlab daromad stavkalarining o'sishi ikkinchi yarim yillikda sukukga investitsiyalarni kuchaytirdi.

Sukuk investitsiyalarda ustunlik qilsa-da, islom banklari global benchmark stavkalarining tez sur'atlar bilan o'sishidan so'ng global moliyaviy bozor o'zgaruvchanligi belgilarini kuzatgan holda, ushbu ta'sirlar uchun yetarli risklarni boshqarishni ta'minlashga harakat qilishdi. Sukukning katta qismi to'lov muddatigacha saqlanadi. Islom banki sektori investitsiyalarining atigi 2% ulushini aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etdi. Mahalliy yoki BAAdan tashqaridagi xalqaro emitentlardan sukuk yetkazib berishda kuchli o'sish kuzatildi.



10-rasm. Dual bank tizimida ikki bank sektori investitsiyalarining ulushi (2023-yil, foizda)

BAA Federal hukumati tomonidan 2023 yilda G'aznachilik sukuki chiqarilishidan oldin HSA tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan, o'rta muddatli daromad egri chizig'ining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu sukuk emissiyasining keyingi o'sishi uchun asosiy omil bo'ladi. Ularning likvid aktivlar portfelining bir qismi sifatida investor sifatidagi rolini hisobga olsak, bu BAA islom bank sektorining sukuk xoldinglarini yanada oshirish imkoniyatiga ega.

Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosamizni keltirib o'tamiz. Bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham islomiy moliya tizimdan samarali foydalanilmoqda. Jumladan, musulmonlar kam istiqomat qiladigan mamlakatlar - G'arbiy Yevropa, AQSh, Kanada va Avstraliyada iste'mol segmenti (musulmon immigrantlarning mahalliy jamoalariga qaratilgan) va korporativ segment (birinchi navbatda Fors ko'rfazining neft qazib chiqaruvchi mamlakatlaridan investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan) sifatida faol rivojlanmoqda.

Tadqiqotimizda dual moliya tizimiga ega ikki mamlakat Turkiya va BAAni tadqiq etdik. Mazkur tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotlarida dual moliya tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishlarida qonunchilik, siyosiy iroda, malakali kadrlar, shariat va buxgalteriya standartlari, ikki moliya sektorining parallel ishlashini ta'minlash maqsadida berilgan teng imkoniyatlar, aholi va biznes sektori vakillarining moliyaviy savodxonligi kabi omillar muhim rol o'yagan.

Har ikkala mamlakatda ham islomiy moliya bozorining rivojlanishi sezilarli darajada o'sayotgan bo'lib, bu tizimlarning an'anaviy moliya tizimlari bilan integratsiyasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotimizda ko'rsatilganidek, islomiy moliya tizimlari, jumladan, islomiy banklar, sukuklar (islomiy obligatsiyalar), takaful (islomiy sug'urta) va islomiy investitsiya fondlari, faqatgina din bilan bog'liq tamoyillarni inobatga olgan holda emas, balki iqtisodiy tizimning umumiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shmoqda. Turkiya va BAA'da islomiy moliya sektori o'sib borayotgan bo'lsa-da, bu tizimlar o'rtasidagi farqlar ham mavjud. BAA, islomiy moliya tizimining rivojlanishi uchun yanada qulay sharoitlarni taqdim etgan bo'lsa, Turkiya ko'proq an'anaviy moliya tizimiga asoslanib qolgan bo'lib, islomiy moliya bozorining integratsiyasi biroz qiyinroq va sekinroq kechmoqda.

Tadqiqotimizning yakuniy xulosasiga ko'ra, dualistik moliya tizimi Turkiya va BAA iqtisodiyoti uchun ijobiy o'sish potentsialiga ega bo'lib, ular o'rtasidagi farqlarga qaramasdan, bu tizimlarning birgalikda faoliyat yuritishi moliya bozorining diversifikatsiyasi va global

investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shuningdek, islomiy moliya tizimining yuksalishi nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim rol o'ynamoqda. Bu tizimlarning o'sishini davom ettirish va kengaytirish uchun davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar, regulyatsiya va islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Abrorov S.Z., (2024) "Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" monografiyasi, TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi, "Demal" nashriyoti, 2024.

Abrorov S.Z., Adxamjonov Sh.B. (2022) Dualistik moliya tizimiga ega mamlakatlarda islom moliyasining tahlili. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 3-son, 2022, 13-16 bet. www.economyjournal.uz

Ali, R., & Omar, S. (2021). Dual finance systems: A theoretical and empirical study on Islamic and conventional finance integration. *Asian Economic Policy Review*, 8(4), 223-235.

Banking Regulation and Supervision Agency. (December 31, 2021). *Banking Sector Data, Monthly Banking Sector Data*; (<https://www.bddk.org.tr/BultenAylık>).

Banking Regulation and Supervision Agency. (June 30, 2022). *Banking Sector Data, Monthly Banking Sector Data*; (<https://www.bddk.org.tr/BultenAylık>).

Beck, T., & Demirgüç-Kunt, A. (2019). Islamic versus conventional banking: A global perspective. *World Bank Policy Research Working Paper*, 8650, 1-29.

Hassan, M. K., & Mahlkecht, M. (2017). Islamic and conventional banking: A comparison of financial performance and risk management practices. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 10(3), 298-315.

ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report (2023).

IFSB Secretariat workings based on PSIFIs, data culled from various RSAs' websites, and annual financial reports of Islamic banks (2023).

Irgasheva G.S., Zayniddinov R. (2024) Ijara (islomiy lizing) va an'anaviy lizingning qiyosiy tahlili. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali* 2 son - fevral, 2024.

Islamic Financial Services Board (2023). *Islamic Financial Services Industry Stability Report*; (<https://www.ifsb.org/sec03.php>).

Muhammad Jamal Haider, *, Gao Changchun, Tayyaba Akram, Syed Talib Hussain (2018) *Exploring Gender Effects in Intention to Islamic Mobile Banking Adoption: an empirical study Arab Economic and Business Journal Volume 13, Issue 1, June, Pages 25-38.*

Rahman, Z. (2019). Financial integration and stability: A model for integrating Islamic and conventional finance systems. *Journal of Financial Markets*, 20(3), 85-99.

Zayniddinov R. (2024) Islomiy va an'anaviy banklarning qiyosiy tahlili. "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi 3-respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil mart. 472-476 b.

Zayniddinov R.X. (2023). O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moli-yalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish. 1401-1410 betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>. 2023-yil, dekabr. No 11-12-sonlar.